
MAHALLALARDA “AYOLLAR DAFTARI” NI SHAKLLANTIRISHGA DOIR XATLOV JARAYONLARI DAVOM ETMOQDA



Mahallalarda “Ayollar daftari” ni shakllantirishga doir xatlov jarayonlari davom etmoqda

So‘x tumanida "Ayollar daftari" 6-bosqichini shakllantirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Tuman xokimi o‘rinbosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Madinaxon Safarova boshchiligidagi ishchi guruh tomonidan mazkur yo‘nalisdagi ishlar G‘aznov mahalla fuqarolar yig‘inida o‘rganildi.

"Ayollar daftari" ning 6-bosqichini shakllantirishga doir mahallada xonadonbay yurish orqali xatlov o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh tuzilgan bo‘lib, mazkur ishch guruhning asosiy vazifasi 30 yoshdan yuqori bo‘lgan har bir ayolning xonadoniga kirib borib, so‘rovnoma to‘ldirib, asosiy va qo‘shimcha muammolari xam to‘liq o‘rganilib, alohida daftarga qayd etib borishdan iborat ekanligi tuman hokimi o‘rinbosari tomonidan yana bir karra ta‘kidlandi.

Ehtiyojmand ayollar va xotin-qizlarning hech biri xatlov jarayonida qolib ketmasligini ta‘minlash shart va zarurligi ham aytib o‘tildi. Bugungi kunda mahallada mazkur yo‘nalisdagi xatlov jarayonlari davom etmoqda.

So‘x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-09 17:21:47